

## KOREYS TILI LEKSIKASIDA O‘ZLASHTIRMA SO‘ZLARNING SEMANTIK DERIVATSIYASI TAHLILI

*Raxmonova Mubarro Tolibovna*

*SamDCHTI Sharq*

*tillari fakulteti, 2-kurs magistranti*

**Annotatsiya:** Ushbu maqola koreys tiliga o‘zlashtirilgan va keng qo‘llaniladigan so‘zlarning semantik derivatsiyasini tahlil qilish, ularning koreys tiliga ta’sirini yoritishga qaratilgan. Maqolada o‘zlashgan leksik birliklarning semantik qirralari va ularning koreys tilidagi ma’nodorlik doirasini kengaytirishdagi o‘rni o‘rganiladi. Asosiy diqqat, koreys tiliga xitoy, yapon, ingliz va boshqa tillardan kirib kelgan so‘zlarning o‘zlashish jarayonida ma’no o‘zgarishi, yangi konnotativ ma’nolar paydo bo‘lishi va ularning madaniy-milliy xususiyatlari bilan bog‘liqligiga qaratiladi. Maqolada semantik derivatsiyaning turlari, jarayonlari va bu o‘zgarishlarning lingvistik hamda kommunikativ ahamiyati batafsil yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** o‘zlashtirilgan so‘zlar, leksik birliklar, semantik derivatsiya, lingvistik tahlil, madaniy-milliy xususiyatlar, konnotativ ma’no

Tilda so‘zlarning ma’nolari har xil usullar bilan ko‘chishi mumkin. Chunonchi, so‘z semantikasidagi o‘zgarish, asosan, metafora, metonimiya, sinekdoxa, vazifadoshlik kabi semantik transformatsiya asosida ro‘y beradi.

Semantika (yun. Semantikos-bildiruvchi, ifodalovchi) — 1) til yoki uning bironbir birligi (so‘z, so‘zning grammatik shakli, frazeologizm, so‘z birikmasi, gap) orqali ifodalanadigan butun mazmun, ma’no, axborot; 2) turli til birliklarining ma’noviy tomonini o‘rganuvchi tilshunoslik bo‘limi; semasiologiya. Semantika lingvistik ma’noni o‘rganadi. Ma’no nima ekanligini, so‘zlarning qanday ma’no olishini, murakkab iboraning ma’nosi uning qismlariga qanday bog‘liqligini tekshiradi. O‘zbek

tili terminlarining ko'pchiligi semantik yoxud semantik-sintaktik usul bilan yasalishi sof o'zbekcha yoki o'zbek tilida avvaldan ishlatilib kelingan arabcha va fors-tojikcha so'zlarni yangi, iqtisodiy ma'noda qo'llashdan iboratdir.

Koreys tiliga o'zlashtirilgan so'zlarning semantik derivatsiyasi (semantik o'zgarishi) murakkab jarayon bo'lib, xorijiy til so'zlarining koreys tilidagi ma'no, funksional qo'llanilish, va tuzilish darajasida o'zgarishini anglatadi. Bu jarayon globalizatsiya, madaniy ta'sir va lingvistik ehtiyojlarning ta'siri bilan yuzaga keladi. Quyida semantik derivatsiya bilan bog'liq tahlillar keltirilgan:

### 1. Semantik o'zgarish turlari

a) Ma'noning kengayishi (Semantic Broadening). O'zlashtirilgan so'zning dastlabki cheklangan ma'nosi Koreys tilida umumiyroq qo'llaniladigan tushunchaga kengayadi: 아이스크림: ingliz tilidagi "ice cream" barcha muzlatilgan shirinliklar uchun umumiy nomga aylanadi. 서비스: inglizcha "service" Koreyada bepul taqdim etiladigan mahsulot yoki xizmat ma'nosini ham o'z ichiga oladi .

b) Ma'noning torayishi (Semantic Narrowing). Dastlab keng ma'noga ega so'z koreys tilida ma'lum bir kontekstda yoki sohaga xos bo'lib qoladi: 스타: Ingliz tilidagi "star" umumiy ma'nosidan farqli ravishda faqat taniqli shaxslar (masalan, qo'shiqchi yoki aktyor) uchun ishlatiladi. 핸드폰: "Handphone" faqat mobil telefonlarni anglatadi, boshqa portativ qurilmalarni emas.

c) Ma'noning o'zgarishi (Semantic Shift). So'zning asl ma'nosi butunlay o'zgarib, Koreyada yangi kontekstda ishlatiladi: 미팅 (miting): Inglizcha "meeting" rasmiy uchrashuvlarni anglatadi, lekin Koreyada bu "yoshlarning tanishuv uchrashuvi" ma'nosiga o'tgan. 렌트: "Rent" (ijara) Koreyada faqat avtomobil ijarasiga nisbatan ishlatiladi. Shunindek hozirda ijtimoiy tarmoqda va yoshlar orasida keng

qo‘llaniladigan 챌린지 [chellinji]: Koreys tiliga challenge (chaqiriq, qiyinchilik) so‘zi ingliz tilidan kirib kelgan. Ushbu leksema aslida lotincha so‘zdan kelib chiqqan va u “tuhmat, g‘iybat” ma’nolarini anglatgan. Britaniya va Amerika kontekstlarida “challenge” so‘zi “katta qiyinchilik”, “og‘ir ahvol” yoki “e’tiroz” degan ma’nolarni bildirib, ijobiy ma’noda kelmagan. Bugungi kunda ushbu so‘z insonning qobiliyatini sinovdan o‘tkazadigan chaqiriq ma’nosida, ko‘pincha musobaqalarda, shuningdek, ijtimoiy tarmoglarda tez-tez tilga olinmoqda. So‘nggi paytlarda juda ko‘p qo‘llanilayotgan ushbu leksema orqali butun mamlakat bo‘ylab mahalliy hokimiyat organlari turli g‘oyalarni targ‘ib qilmoqda.

## 2. Semantik derivatsiyaning lingvistik omillari

a) Fonetik moslashuv. O‘zlashtirilgan so‘z koreys talaffuziga moslashtiriladi, bu esa yangi so‘z ma’nosining lokalizatsiyasiga yordam beradi. Masalan, 케이크 [keikiu] “cake”, talaffuzi soddalashtirilgan, shuningdek, faqat pishiriq turini anglatadi.

b) Madaniy va ijtimoiy kontekst. Koreya madaniyatida xorijiy so‘zlarning ishlatilishi ba’zan ularning dastlabki ma’nosiga yangi madaniy qiymat qo‘shadi. Masalan, 홈쇼핑 [homshyoping]: Ingliz tilidagi “home shopping” Koreyada televizion do‘konlar yoki onlayn xarid tizimini anglatadi .

c) So‘zning qisqarishi yoki birikishi. Ba’zan o‘zlashtirilgan so‘z qisqaradi yoki mahalliy so‘z bilan birikib, yangi iboralar hosil qiladi: 버스정류장 [bosiu chongnyujang]: inglizcha “bus” va koreyscha “to‘xtash joyi” birikmasi.

## 3. Semantik derivatsiyaning qo‘llanilishi

Hozirgi rivojlanib borayotgan zamonaviy jamiyatda semantic derivatsiya asosan texnologiya, ilm-fan, pop madaniyat va reklamalarda ko‘p uchraydi:

a) Texnologiya va fan sohalarida. Texnologiya sohalarida o‘zlashtirilgan so‘zlar keng tarqalgan va ko‘pincha maxsus ma‘nolarga ega bo‘ladi: USB (yusiubi): USB qurilmalar uchun ishlatiladi, boshqa “storage device”larni o‘z ichiga olmaydi. SNS (ese-ne-seu): “Social Network Service” (ijtimoiy tarmoqlar) ma‘nosida ishlatiladi.

b) Pop madaniyat va reklama. O‘zlashtirilgan so‘zlar pop madaniyatda yoki marketingda brendni zamonaviy qilib ko‘rsatish uchun ishlatiladi: 쇼핑 (shyoping): Inglizcha “shopping” atamasidan kelib chiqqan va moda yoki zamonaviy xarid bilan bog‘lanadi. 모델 (model): Faqat moda namoyish etuvchilar yoki reklama yuzlarini anglatadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abduazizov A.A. Tilshunoslik nazariyasiga kirish. – Sharq, 2010
2. Dadaboyev.H. O‘zbek terminologiyasi. Toshkent, 2019
3. Hyun-soon Kim. Loanword Adaptation between Japanese and Korean: Evidence for L1 Feature-Driven Perception. Springer Nature. 2008
4. Iksop Lee va Robert Ramsey: The Korean Language, State University of New York Press, 2000.
5. Ito Chiyuki, Yoonjung Kang, and Michael Kenstowicz. The Adaptation of Japanese Loanwords into Korean. 2006
6. Raximov. A. S Leksik va sematik derivatsiya muammolari, Toshkent, 2011
7. 희락채. “한국어 형태통사론: 접어와 통사론에서의 역할”, 라우틀리지, 2020.